

NASRIY ASARLARDA JALOLIDDIN MANGUBERDI SIYMOSI VA EPIK TASVIR MAHORATI

Abdurazaqova Kumush G'olibjon qizi

ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti

fakulteti 2-bosqich magistri

Tel raqami: +998991561323

E-mali: abdurazaqovakumush@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdi siymosining o'zbek nasridagi badiiy talqinlari Temur Po'latov, Shahodat Ulug' va Baxtiyor Abdug'afur asarlari misolida tadqiq etilgan. Yozuvchilar qahramonning an'anaviy mardlik sifatlaridan tashqari, uning insoniy iztiroblari va ruhiy olamini ochib beruvchi postmodernistik hamda psixologik yondashuvlarni tahlil qiladi. Asarlardagi tarixiy fakt va badiiy to'qima mutanosibligi, qahramon obrazining epik tasvir mahorati ilmiy nuqtayi nazardan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Manguberdi, tarixiylik, badiiy talqin psixologizm, postmodernism, epik tasvir.

Kirish

Buyuk sarkarda, Anushteginiylar sulolasining so'nggi sultoni, ulug' sarkarda Jaloliddin Manguberdi haqida ko'plab badiiy asarlar yozilgan. Jaloliddin Manguberding haqiqiy siymosini o'rganish va keng miqyosda tadqiq etish ilmdagi uzluksiz davom etadigan bir jarayondir. Bugungi kunga qadar o'zbek adabiyotida turli janrlarda maydonga kelgan, Jaloliddin Manguberdi shaxsiyatini, qahramonligi, vatansevarligini o'zida mujassam etgan nasriy asarlar hanuzgacha maxsus o'rganilmasdan qolmoqda. Zero, Jaloliddin Manguberdi timsolidagi jasorat, sadoqat, olijanoblik fazilatlarini targ'ib etuvchi asarlar bugungi Yangi O'zbekistonning har bir fuqarosi uchun ma'naviy qadriyatdir. Ayniqsa, XX-XXI asr o'zbek nasrida bu tarixiy shaxsning siymosi o'zgacha bo'y ko'rsatib turadi. Ulardan biri o'tgan asrda Temur Po'latov tomonidan yozilgan "Jaloliddinning so'nggi suhbatdoshi" hikoyasi bo'lsa, yana biri Shahodat Ulug' tomonidan yaratilgan "Jayhun epkinliklari yoxud Jaloliddin Manguberdi" qissasidir. Yangi davrda maydonga kelgan Baxtiyor Abdug'afurning "Sulton Jaloliddin Manguberdi" romani esa qahramonimizning o'ziga xos jihatlaridan hikoya qiladi.

Asosiy qism

Ma'lumki, Maqsud Shayxzodaning dramasi qahramoni Jaloliddin Manguberdi obrazining badiiy genezisi keyingi adabiy asarlar uchun nazariy va ijodiy poydevor bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Dastlabki talqinlarda uning milliy va universal qahramon

sifatidagi timsoli shakllanib, keyinchalik bu obraz xalqni ruhlantiruvchi, tarixiy xotirani mustahkamlovchi, badiiy-estetik merosga aylanganligi ochiqdanadi. Jaloliddin Manguberdi butun turkiy xalqlar xotirasidan mardlik, jasorat, vatanparvarlik timsoli sifatida mustahkam o‘rin egallagan. Jumladan, Azim Suyun, Baxtiyor Abdug‘afur va Erkin Samandar kabi turli avlod vakillari yozgan asarlarda Jaloliddin Manguberdi obrazi vatan ozodligi uchun kurashuvchi dovyurak, din qalqoni va xalq qahramoni sifatida tasvirlangan. Shu o‘rinda Temur Po‘latovning “Jaloliddinning so‘nggi suhbatdoshi” asariga to‘xtalamiz. Avvalo, Temur Po‘latovning bu asari postmodernistik qarashlar asosida yaratilgani bilan e‘tiborga molikdir. Boshqa yozuvchilardan farqli o‘laroq, muallifning ushbu hikoyasida Jaloliddin Manguberdi obrazi oddiy insoniy holatlar, ichki kechinmalar, axloqiy iztiroblar girdobida gavdalanadi. Dunyoga mashhur yozuvchilar qatorida tilga olinuvchi ijodkor Temur Po‘latov mazkur asarni 1987-yilda yozib tugatadi. “Jaloliddinning so‘nggi suhbatdoshi” hikoyasi tarixiy shaxsiyatni o‘z zamonasining ruhiy, ijtimoiy, axloqiy inqirozlari fonida badiiylashtirgan murakkab asardir. Undagi har bir voqea-hodisa va detallar Jaloliddin Manguberdi obrazining ma‘lum qirralarini ochishga xizmat qilgan. Masalan, voqealar rivojida aks etgan Jaloliddin va amiri Ma’sudning may ichish tasvirini olaylik. Unda Jaloliddin Manguberding ichki iztirobi, chorasizligi “mastlik” niqobi ostida berilgan.

“U chog‘ir to‘la qadahni og‘ziga yaqinlashtirdi-da, birdan qalqib ketdi, lekin bo‘g‘ziga qadalgan xo‘rlikni chog‘ir ichib bostirib yubordi. Jaloliddin dilxunliklardan o‘zini chalg‘itish niyatida Mas’udning biqiniga turti.

— Anu, xotinni... xo-xo-xo!! Rumdan olib qochgandi-ku!.. It emgan qallob... oti nimaydi? Xudosiz...

— O‘n olti yoshda edi, — anglab bo‘lmas bir g‘urur bilan g‘o‘ldiradi Mas’ud. — Buxoro yulduzi edi...

— Oy desang-chi! - dedi sulton zavq va alam bilan.

— E, oy edi, oy!..” [3:328].

Odatda, xonlar, sultonlarning og‘zidan chiqadigan har bir so‘z oddiy insonlarnikidan farqlanib turadi, ularning so‘zlarini tinglovchi har bir kishi hayiqib, hayajonlanib turishi kerak. Yuqorida keltirilgan dialog esa bizni bu fikrdan yiroqlashtiradi va Jaloliddin shaxsiga yaqinlashtiradi. Uni oddiy insonlardek tasavvur qilishimizga yordam beradi. Jaloliddin Sulton bo‘lishdan ham oldin, eng avvalo, INSON va insoniy iztiroblarda qovurilish, azob chekish, bildirmaslikka harakat qilish holatlari asarda “bo‘g‘ziga tiqilgan xo‘rlikni chog‘ir ichib bostirib yubordi”, “dilxunliklardan o‘zini chalg‘itish niyatida Ma’sudning biqiniga turti” tasvirlari orqali uni bizga, qalbimizga shoh deb emas, INSON deb tanishtiradi. Ammo u oddiy inson emas, Ulug‘bek Hamdam ta’biri bilan aytganda “Buyuk bir sharaf – insonlik” nomiga ega zot va “Komil insonlik sari tashlangan qadamdir”. [2:167].

Temur Po‘latov falsafasining izchil yo‘nalishini tashkil etgan “ayon bo‘lish...” hodisasi kishini mag‘zi bo‘liq, vazminlikka, dunyoni yanada teran anglashga, munosibroq, insoniyoq yashash haqida bosh qotirishga undaydi. Bunday lahzani boshidan kechirgan Jaloliddin va hokazo qahramonlar dunyoga, odamlarga ezgulik ko‘zi bilan qaray boshlaydilar, ular dunyoning barcha o‘tkinchi havaslaridan o‘zlarini ustun sezadilar...” [3:22]. Shu bois Jaloliddin o‘zini talayotganlarga jirkanib qaraydi, hatto u mol-mulkka ruju qo‘ygan odamzodning ahvoliga achinadi, nafrati shu darajaga ko‘tariladiki, uning tasavvurida odam o‘ldirish evaziga boylik orttirayotgan qotil qarshi qo‘l ko‘tarishga ham arzimaydi!..

Temur Po‘latovning “Jaloliddinning so‘nggi suhbatdoshi” hikoyasi orqali yozuvchi tarixiy qahramonni insoniy mezonlar asosida qayta talqin qiladi. Biz bu hikoyada Jaloliddin obrazidagi qahramonlik va fojialilik, shaxsiy tanazzul va ruhiy yuksalish o‘rtasidagi ziddiyatlarni ko‘ramiz. Muallif uni qudratli sarkarda emas, avvalo inson sifatida, ichki kurashlar bilan yashayotgan shaxs sifatida tasvirlaydi. Bu yondashuv orqali Po‘latov tarixiy haqiqatni estetik anglash darajasiga olib chiqadi. Qolaversa, ijodkor Jaloliddin Manguberdi tabiatining murakkab qatlamlarini ochishda psixologik va falsafiy yondashuvlarni hayratlanarli tarzda uyg‘unlashtira oladi. Adabiy-tanqidiy qarashlarda esa bu hikoya postmodern tafakkur elementlari bilan ajralib turadi. Jaloliddin Manguberdi obrazi Po‘latov asarida donishmandlarcha o‘limni qabul qilgan odam sifatida talqin etiladi. Bu esa Jaloliddin Manguberdi shaxsiyatining o‘rganilmagan, ochilmagan yana bir qirralaridan hisoblanadi.

Shahodat Ulug‘ning “Jayhun epkinlari yoxud Sulton Jaloliddin Manguberdi qissasi” romanida esa Jaloliddin Manguberdi markaziy obraz sifatida tarixiy faktlar, badiiy to‘qima, portret, mahalliy kolorit va o‘ziga xos uslub orqali tasvirlangan. “Yozuvchi tarixiy manbalarni o‘rganadi, faktlar, voqealar ularning ishtirokchilari haqida ma’lumotlarni yig‘adi, uning endigi vazifasi – o‘rganilganlarni badiiy qayta ishlashdir. Badiiy voqelikda faktlar jonlanishi, voqealar yuz berishi, shaxslar yashashi lozimligi ham shular jumlasiga kiradi”.[4,74]

Yozuvchi tarixiy mavzuda asar yozar ekan, o‘zidan oldingi an‘analar va talqinlarga rioya qilishi odatiy hol bo‘lib, bu yondashuv asarning tarixiy voqealar bilan bog‘liqligini mustahkamlaydi. Asar davomida Jaloliddinning insoniy hissiyotlari, alam va fojiasi juda ta’sirchan yoritilsa ham, yozuvchi uni shahzoda sifatida ideallashtirib yubormaydi. Xususan, Darig‘aga dil izhori qilingan, ammo keyinchalik uning oddiy insonga unashtirilganligini bilgan Jaloliddin muhabbatidan voz kechadi, davr taomiliga bo‘ysunadi.

Jaloliddin Manguberdi obrazi aks etgan romanlarda va tarixiy manbalarda ham Jaloliddin otasiga bo‘ysunuvchi, doim unga ko‘makdosh farzand sifatida gavdalanadi. Romanning “Ota so‘ziga ilhaq shahzoda – Jaloliddin” bobi tabiat tasviri bilan boshlanadi. Xalq dialogida asar bosh qahramoni Jaloliddinga suyanish mumkinligini

“qo‘shin boshida Jaloliddin bo‘lganida O‘tror yoki Buxoro mo‘g‘ullarga yengilmagan bo‘lardi!”, degan kimningdir aytgan shu so‘zlaridan bilish mumkin edi. Yana: “Shahzodaga jami cherikni hamda Temur Malik, Amin Malik va Quzbor Malikka o‘xshagan lashkarboshilarni berish kerak edi. Mo‘g‘ul Sayxundan bu yog‘iga o‘tolmasdi” kabi odamlarning u haqidagi bahs va munozaralarida o‘z aksini topadi.

Ushbu roman-dilogiyada Chingizxon an‘anaviy tarzda jallod, qonxo‘r obraz emas, siyosiy yetuk hukmdor darajasida gavdalanadi.

Romanning ekspozitsiya qismida obrazni to‘ldirib keladigan muallif xarakteristikasi Jaloliddinning shaxsiyati haqida dastlabki tushuncha bersa, uning xarakteri asar voqealari davomida rivojlanib, qahramonni chinakam tarixiy va badiiy obraz darajasiga ko‘taradi. Chunki “Badiiy adabiyotda inson obrazni to‘laqonli yaratish, uni o‘quvchi ko‘z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud. Bularga muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy unsurlar kiradi”.

XX–XXI asrlarda yaratilgan “Sulton Jaloliddin Manguberdi”, “Jayhun epkinlari yoxud Jaloliddin Manguberdi qissasi”, “Jaloliddinning so‘nggi suhbatdoshi” kabi nasriy asarlarni birlashtirib turadigan jihatlar borki, u ham bo‘lsa, ayni bir xil tarixiy faktlardan keng foydalanilganligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bunyodov Z. “Xorazmshohlar – Anushteginiylar davlati” (Moskva: Nauka, 1986 yil, 185 b.
2. Xamdamov U, Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – .381 b.
3. Puлатов Т, Гойибнинг иккинчи сафари. “Янги аср авлоди”, 2019 й. – 352 б.
4. Қуроноф Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013. – . 398 б.
5. <https://asarlar.uz/muallif/temur-polatov>
6. <https://perepost.uz/uz/news/138356>